




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



+998335668868

<https://innoworld.net>

Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 5-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



**Academic
Resource
Index
ResearchBib**



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



Mopassan hikoyalarida psixologik tahlilning chuqurligi**Abdullayeva Ruxsora**

TerDPI 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Toshpo'latov Zayniddin**

Annotasiya: Ushbu maqola inson hayotida kechadigan og'ir sinovlar, ruhiy iztirob va irodaviy kurashni badiiy tasvirlagan asardir. Asarda qahramon boshidan kechirgan fojeali voqealar orqali insonning hayotga bo'lgan munosabati, umid va ishonchning kuchi yoritiladi. Muallif o'lim va hayot chegarasidagi holatni ramziy ma'noda talqin qilib, inson ma'naviy jihatdan "o'lib", keyin esa ruhiy jihatdan "tirilishi" mumkinligini ko'rsatadi. Novella hayotning qadriga yetish, sabr-toqat va insoniylik g'oyalarini ilgari suradi hamda o'quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi.

Kalit so'zlar: hayot va o'lim, ruhiy kechinma, fojea, inson irodasi, umid, sabr-toqat, ma'naviy uyg'onish, hayotning qadri, sinov, badiiy talqin.

Gi de Mopassan fransuz yozuvchisi. U o'zining asarlariga ma'naviy qashshoq, munofiq kishilar obrazining butun bir silsilasini ochiq-oydin yaratib bergan. Uning ayrim novellalarida turmush qa'riga ulotirilgan, vos kechilgan notavonlar hayoti tasvirlangan. Muhabbatni, sevgi va sadoqatni mol-dunyodan iborat deb biluvchi, shu sababli har bir qadamda o'zini sotishga, pullashga tayyor ayollar obrazi bir qancha asarlarida mahorat bilan chizilgan. U deyarli barcha asarlarida sof muhabbatni kuylaydi va ma'naviy yuksak oddiy kishilarni qadrlaydi, vatanparvar va jasoratli insonlarni tarannum etadi. Mopassanning hikoyalar va asarlarida psixologik tahlillar ko'p uchraydi. Misol uchun, "O'lib tirilgan" novellasini olishimiz mumkin. Ota va qizni kurortga davolanishga borgani va u yerda sayr qilish uchun chiroyli va tinch joy so'rash uchun asarning bosh qahramoni bilan tanishgani va ota o'zining boshidan o'tgan voqealarni qahramonga aytishi noodatiy tarzda tasvirlab berilgan. Muallif voqeani tasvirlash jarayonida tashqi muhit, odamlarning qiyofasi asabiy harakatlar orqali ruhiy tanglikni kuchaytiradi. Ota ruhiy zarba natijasidagi travmadan aziyat chekkan obraz. U farzandini yuqotish azobi bilan yashaydi. Shuning uchun unda turg'un ruhiy charchoq, ichki bo'shliq, umidsizlik kuchli namoyon bo'ladi. Bundan tashqari otaning qo'li havoda "doira chizish" posttravmatik nevroz belgisidir. U bu holni "o'sha dahshatli voqeadan keyin qo'lim qaltiraydigan bo'lgan" deya izohlaydi. Ota qizini tiriklayin ko'milishiga sababchi bo'ldim degan ruhiy og'riqni ichida olib yuradi. Bu esa unda aybdorlik hissi, o'zini o'zi ayblash, tajanglik, asabiy silkinishlar ko'payishiga sabab bo'lgan. Qiz jismonan ham ruhiy ham juda zaif, siniq ko'rinishda tasvirlangan va asarda rangpar, horg'in, siniqqan, nimjon, qotma kabi epititlar uning ruhiy tushkunlikda ekanligini ko'rsatadi. Qizning hushidan ketishi va "o'lik deb o'ylanishi" asab kasalliklari, zaiflik va ruhiy tushkunlik bilan bog'liq. Uning chap qo'lida qo'lqopni yechmasligi- psixologik uyat, jarohatlarni yashirish yoki o'tmishdan qo'rquv belgisi Prosper

ikkiyuzlamachi obraz. Avvalo asarda "ishonchli xizmatkor" sifatida ko'rsatiladi, lekin keyin qabrdan qizning taqinchoqlarini o'g'irlash uchun tobutni ochgan odam o'zi bo'lib chiqadi. Qo'rqmasdan tobutni ochishi axloqiy tubanlik, hirsning kuchli ta'siri. Tirik qizni ko'rganda birda yuragi to'xtab o'ladi va bu yuksak darajada qo'rqqoq shaxs. Xulosa qiladigan bo'lsak, asar inson ruhiyatining naqadar mo'rt, murakkab va ko'p qirrali ekanini ko'rsatadi. Unda oddiy kurort muhitida uchragan g'ayrioddiy voqea orqali turli psixologik haqiqatlar ochib beriladi. Ota boshidan kechirgan dahshat qizini yo'qotish, so'ng uni tirik ko'rishi uning ruhiyatiga chuqur jarohat qoldirgan. Uning qo'l qaltirashi, asabiy harakatlari travmaning jismoniy ko'rinishi. Asar inson ruhiyatining sinuvchanligini yo'qotishdan keladigan iztirob, qo'rquv, aybdorlik va travma kabi hissiyotlarning odamni qanday izdan chiqarishini chuqur ochib beradi. Hikoya bizga ruhiy og'riqlar jismoniy jarohatlardan ham og'ir, ularning izi esa ko'proq vaqt qolishini eslatadi.

Yozuvchining "So'qir" hikoyasi ham alohida voqeani, holatlarni tasvirlashga xizmat qiladi. Asarda "Insoniylik" sinovida qolgan jamiyat tasvirlangan. Quyosh chiqqanida insonning yuragi quvonchga to'ladi, ranglar ko'zni, hayot esa ruhni yayratadi. Ammo bu ne'matlar hammaga ham birdek nasib etavermaydi. Ko'zi ojiz insonlar borliqni ko'ra olmaydi, biroq ular ham his qiladi, og'riqni, haqoratni, mehrga bo'lgan ehtiyojni chuqurroq sezadi. Tahlil qilinayotgan asar ana shunday inson — jamiyat tomonidan shafqatsizlarcha ezilgan, nogiron bir kishining fojiaiy taqdirini ochib beradi. Asarda markaziy masala — inson qadrining toptalishi. Nogiron yigit ota-onasi hayotdan ko'z yumgach, qarindoshlarining qaramog'ida qoladi. Ammo bu "qaramog'ida bo'lish" g'amxo'rlik emas, balki xo'rlik va zo'ravonlikka aylanadi. U har kuni haqoratlanadi, masxara qilinadi, hatto ovqatlanish payti ham insoniy sha'ni poymol etiladi. Eng achinarlisi, bu vahshiyona munosabatlar jamiyat tomonidan oddiy hol sifatida qabul qilinadi. Muallif jamiyatning jamoaviy aybini ochib beradi. Bu yerda faqat bitta pochcha yoki qarindosh emas, balki tomoshabin bo'lib kulgan dehqonlar, befarq atrofdagilar ham jinoyatning sherigiga aylanadi. Nogiron insonni tiriklayin o'ldirgan narsa sovuq qish emas, balki rahmsizlik va loqaydlikdir. U tilanchilikka majbur qilinadi, oxir-oqibat qahraton qishda tashlab ketiladi va qor ostida jon beradi. Asardagi ramziy tasvirlar alohida e'tiborga loyiq. Oqartirilgan qor — tashqi poklik, ammo ichki shafqatsizlikni; qarg'alar esa insoniylikdan ayrilgan jamiyatda hatto o'likning ham hurmati yo'qligini anglatadi. Nogironning ko'r ko'zlari hayot davomida hech kimga "kerak bo'lmagan" bo'lsa, o'limidan keyin ham bexosiyatdek talanadi. Bu esa asarning eng og'ir va ta'sirchan nuqtasidir. Asar o'quvchini oddiy achinish bilan cheklanib qolmaslikka undaydi. U savol qo'yadi: insonni kim o'ldirdi — sovuqmi yoki odamlar? Javob esa aniq: befarqlik, rahmsizlik va vijdotsizlik. Agar jamiyat ojizlarni himoya qilmasa, u jamiyatning o'zi ham ma'naviy ko'rga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, bu asar insoniylik haqida ogohlantiruvchi faryoddir. U bizni nogironlarga, zaiflarga, jamiyat chetiga surilgan insonlarga boshqacha nigoj bilan qarashga chaqiradi. Chunki insonni inson qiladigan narsa ko'zining ko'rishi emas, qalbining uyg'oqligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodiriy, A. Tanlangan asarlar. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
2. Yo'ldoshev, B. XX asr o'zbek nasri. — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2004.
3. To'xliyev, B. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2012.
4. Umumta'lim maktablari uchun Adabiyot darsligi — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2020.
5. Ge de Mopassanning "O'lib tirilgan" asari.

